

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

ELEKTRON TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Raximov Akmal Akbarovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotation. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning taraqqiyotining zamirida zamonaviy ta'lim sohasidagi islohatlarning izchillik bilan hayotga tadbiq etilganligi bilan asoslab kelinishi ham bejor emas. Keyingi yillarda O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi islohatlarning jahon sivilizatsiyasining tadrijiy taraqqiyotidagi pedagogik yutuqlar bilan umumlashtirish, etakchi tamayillarni uzviylikda anglash, tajribalarni almashish muhitini shakllantirish imkoniniyati vujudga keldi. Elektron ta'lim tizmining aosida turli xil qarashlar, tushunchalar mavjudligini unitmagan holda, uning bugungi zamonaviy shakllarining maydonga kelishi ham zamon bilan hamnafaslikda ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim, qarashlar, tushuncha, yondoshuv, elektronlashtirish, asoslar.

Аннотация. Неслучайно развитие развитых и развивающихся стран базируется на последовательной реализации реформ в сфере современного образования. В последующие годы удалось обобщить реформы в сфере образования в Узбекистане с педагогическими достижениями в постепенном развитии мировой цивилизации, последовательно понять ведущие принципы, создать среду для обмена опытом. Учитывая, что в системе электронного обучения существуют разные взгляды и концепции, утверждалось, что появление его современных форм соответствует времени.

Ключевые слова: электронное обучение, взгляды, понимание, подход, электронизация, основы.

Annotation. It is no coincidence that the development of developed and developing countries is based on the consistent implementation of reforms in the field of modern education. In the following years, it became possible to generalize the reforms in the field of education in Uzbekistan with pedagogical achievements in the gradual development of world civilization, to understand the leading principles in a coherent manner, and to create an environment for the exchange of experiences. Keeping in mind that there are different views and concepts in the e-learning system, it was argued that the emergence of its modern forms is in line with the times.

Key words: e-learning, views, understanding, approach, electronicization, basics.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida shakllanib, juda katta islohatlarning ta’limdagi o‘ziga xos tamoyillarini shakllantirdi, uning o‘ziga xos jihatlariga yanada jiddiy nazar solish an’anasini yuzaga chiqardi. Bu jarayonda ta’limning har bir sohasidagi tushunchalar, yangiliklar, ularning axborot xizmatidagi o‘rnini asoslash zarurati ham vujudga kelmoqda. Bugungi glaballashuv va axborot asrida bu jarayonning o‘ziga xos o‘rni mavjudligini alohida qayd etish lizim. Uzluksiz ta’lim tizmini yanada takomillashtirish, sifatli va xalqaro standartlarga javob beradigan darajadagi ta’lim shakllarini jadal susratlar bilan hayotga tadbqiq etish zarurati vujudga kelganligi alohida qayd etilgan. Mehnat bozorining zamonaviy ehtiylariga hamohang ta’lim jarayonini yuzaga chiqarishga qaratilgan islohatlarning mohiyati aosli yoritilgan.

Ta’lim taraqqiyoti zamiridagi o‘zgarishlar esa, an’anaviy metodika bilan uzviy birlikda noan’anaviy interaktiv o‘qitish metodlari ham kirib kelganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa pedagog kadrlarni samarali mehnat qilish imkoniyatini kengaytirish bilan birgalikda, elektron ta’lim jarayonining joriylanishiga imkon yaratadi. Milliy metodikaning prinsip va tamoyillariga bo‘lgan munosabatlarning shakllanishi ham, johon ta’lim standartlariga asoslangan holda o‘zgarib borayotganligi glabol ta’lim sohasidagi tushunchalar asosida tahliliy qarashlarga asoslangan mulohazalarni ilgari surish imkonini berganligi qayd etiladi. Jahon ta’lim tizmidagi o‘zgarishlarning mohiyati, insonni anglashga bo‘lgan ehtiyoj sifatida qaralar ekan, kadrlash tayyorlash jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda, uning mohiyatini anglagan holda shakllantirish jarayoniga munosabat bildirilgan. Dars samaradorligini o‘ziga xos tamoyillaridan biri ham talabaning ong;li tarzda yondoshuvidan kelib chiqadigan tushunchalarni umumshtirishdan iboratdi.

Elektron ta’lim jarayoning afzalliklari, uning mohiyatini teran anglash, uning metodik xususiyatlarini asoslashni ham talab etadi. Rivojlangan davlatlarning ta’lim tizmidagi qarashlarning mohiyati, uning metodik va ta’limiy xususiyatlarini aosli tahlil qilish, xulosalalar chiqarish kabi holatlarga tahliliy yondoshilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchidan o‘quvchilarning mustaqil izlanishlariga e’tiborni kuchaytirish, electron tizim asosida masofaviy baholanishini ta’minlash jarayonlari ham nazariy asoslarga, tushunchalarga tayanilishiga e’tibor qaratilgan. Bu jarayondagi tushunchalarni mukammalik kasb etishiga xisnat qildirish, axborot va uning xurujlardan muhofaza etish prinsiplariga munosabat bildirilgan.

Elektron ta’lim jarayonidagi axborot xavfsizligining asosida, talabaning baholanishi, uning izlanuvchanlikka bo‘lgan intilishlarining samarasi ham mujassamlashganligini inkor etib bo‘lmaydi. Uzluksiz ta’lim jarayonidagi qarashlarning mohiyati o‘zgarishi bilan birgalikda, jahon ta’lim standartlariga qarab siljish, uning etakchi tamoyillariga aosli yondoshish talabi ham mavjudligiga munosabat bildirildi. Davrning eng xarakterli jihatlaridan biri. Iqtidorli, salohiyatli kadralani tarbiyalsh, buning uchun asosiy o‘quv jarayonidagi axbborot tizimining mukamallaigini ta’minlash haqidagi mulohazalar ham o‘rin oldi.

Adabiyotlar tahlili. Elektron axborot tizimini rivojlantirish, uning xususiyatlarini keng imkoniyatlar asosida shakllantirish imkonini bermoqda. E.G‘.G‘oziyevning “Psixologiya”

darsligida insonni naglash, uning xarakter qirralarini izohlash naqadar mushkul vazifa ekanligini qayd etgani holda, glaballashuv jarayoni, uning turli xususiyatlarini namoyon etayotganligini ta’kidlagani haolda, axborot berish [1] va tarqatish jarayonida insonning psixologiyasiga ham e’tibor qaratgan [2]. F.R.Qodirova va boshqalarning “Maktabgacha pedagogika” darsligida ham bolaning ilk shakllanishidayoq axborot tizimining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlagan [3], uning to‘g‘ri va asosli mantiqiy fikrlashiga imkon beruvchi [4] tushunchalar e’tirof etilgan. “Global ta’lim va metodika taraqqiyoti” nomli konferensiya materiallarida ham bu kabi masalalarga ma’lum darajada to‘xtalib o‘tilgan. axborotlarning birlamchi bo‘lishiga diqqat qilingan [5]. Belgilangan adabiyotlardagi qarashlarning zahirida elektron axborot olish va tarqatish bilan birgalikda, uni saqlash, sir saqlash tamoyillariga ham ma’lum darajada yondoshilganligini ham qayd etish kerak.

Muammoni hal qilish yo‘llari. Uzoq yillik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, elektronlashtirish davr talabi ekanligi, buning o‘ziga xos tamoyillari mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Chunki oily ta’lim dargohiga qadam qo‘ygan talabada juda katta ishonch, ta’limga muhabbat bo‘lishi tabiiy hol. Ammo ularning faoliyatini, qarashlarini, imga bo‘lgan muhabbatini, yanada shakllantirish imkoniyatini vukudga keltirish lozim. Har bir talab botinan o‘zidagi ilmni, salohiyatni ochishga harakat qiladigan ilmiy rahbarni, ustozni izlaydi va unga qarab talpinadi. Talaba o‘zidagi nayob iste’dodni, uning kasbiga qiziqishini, muhabbatini ham inobatga olish lozim. Bu jarayon talabaning har bir daqiqasini mazmunli o‘tlazishni ham talab etadi. Chunki glaballashuv jarayonidagi qarashlar, integratsiyalashuv tizimi bugungi ta’lim tizimidagi islohatlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Shu jihatdan, elektron ta’lim tizmi, uning mexanizmini ishlab chiqish, joriy etish, axborot xavfsizligini qat’iy nazorat qilish kabi qator vazifalarni ham global muammolardan biri sifatida shakllanib ulgurganligini unitmaslik lozim. Shuning uchun elektron axborot tizmining abzalliklari, uning belgilangan qonuniyatlar asosida shakllantirish an’anasini, jahonning taraqqiy etgan ta’lim tizmi bilan tajriba almashishni ham talab etadi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohatlarning zahirida, globallashuv davriga javob beruvchi kadrlash tayyorlashga bo‘lgan intilish kuchaydi. Bu esa o‘quv tizmini yanada takomillashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish choralari ishlab chiqilmoqda. Ta’lim tizmidagi talabalarning ichki imkoniyatini ochish, ularning tafakkur qilishi, mustaqil tushunchalarni bayon etishiga keng imkon berish bilan birgalikda, ularning faoliyatini zamonaviy ruhga moslashtirish, integratsiyalashuv jarayonlariga javob beradigan shaxs va mutaxassis bo‘lib etishishini ta’minlashga imkon berish ham talab etiladi. Ularni yangi lohiyalar ustida ishlashga, axborot tizimining asosiy xususiyatlarini ochib berishga, uning glaballashuv jarayonidagi o‘rnini asoslashi izohlay olishiga, bu jarayondagi faolligiga ishonch hosil qilishi talab etiladi.

Ta’lim tizimidagi islohatlarning taraqqiy ettirishning zahirida talabaning faoliyati va uning xususiyatlari etakchilik qiladi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da uzluksiz ta’lim

tizmini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish haqidagi tushunchalar ham qat’iy o‘rin olishi bejiz emas edi. Bu tushunchalarning asosida ta’lim tizmidagi islohatlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etish kabi qator masalalar ilgari surilgan edi.

Darhaqiqat, bugungi glaballashuv jarayoni barcha soholalarni modernizatsiya qilishni talab etmoqda. Shuning uchun keyingi yillarda ta’lim sohasiganoan’anaviy interaktiv metodlarning kirib kelishi, uning tadrijiy taraqqiyotini ta’minlash maqsadida, axborot berish va olish sharoitlarini mukammallashtirish imkonini bermiqda. Shu asosida milliy metodikaning prinsip va tamoyillari yangi innovatsion o‘qitish usullari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ham qayd etish lozim. Zamonaviy ta’limning asosida elektron axborot tizmi, uning funksiyalari etakchi rol o‘ynaydi, bu esa ana shu sohaning taraqqiyoti bilan uzviy birlikda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim sohasidagi islohatlar amalgam oshirilar ekan, o‘qitishning xalqaro miqyosdagi konsepsiyalaridan, jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqot natijalaridan unumli va asosli foydalanish zaruratini yuzaga chiqardi, bu esa rivojlangan mamlatlarning ta’lim sohasidagi etakchi tamoyillarini o‘rganish va joriy etish imkonini ham yaratdi. Olib borilayotgan tadqiqot natijalarini ishlab chiqarish bilan birgalikda, uzviylikda mantiqiy izchillikda davom ettirish imkonini ham yaratadi. Bugungi kunda jahon fanining taraqqiyotini ta’limdagi yutuqlar bilan chambarchas ekanligini ham qayd etishni talab etadi, shuning uchun axborot tizimining kuchayishi, uning o‘ziga xos tamoyillarini ham shakllantirdi.

Taklif va tavsiyalar. Axborot xavfsizligi elektron hujjatlarning yuritilishini, uning zaruriy jihatlarini sir saqlash imkonini ham beradi. Ta’lim sohasidagi islohatlarning asosida ham, ta’labaning masofaviy ta’lim olishi, buning zamiridagi turli axborot tizimlarining asosli faoliyat yuritilishini ta’minlashga ham ehtiyojni shakllantirdi. Chunki, ta’lim sohasidagi tadqiqotlarning samarasi, mazmun mundarijasi ham, mazkur nazariy qarashlarni takomillashtirishga, ularga jiddiy e’tibor qaratishga asos bo‘lmoqda. Har qanday ta’lim sohasining mukammaligi uning elektronlashtirilganli va uning xavfsizligini namoyon etish bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tushunchaning asosida, globalashuv jarayonidagi tushunchalar mujassamlashganligini unitmaslik lozim. Inson tafakkurining rivojlanishi har qanday davr xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirish bilan birgalikda, ularning qarashlarida, islohatlarida, jamiyatning taraqqiyotini belgilavchi mezonlar bilan dialektik birlikda bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida elektiron tizimning takomalishshtirish bilan birgalikda, axborot tarqatish va qabul qilishda ham namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, XX asrning so‘ngi XXI asrning birinchi choragiga kelib, ijtimoiy islohatlarning yuksalishi, fan tarmoqlarining yangilanishi axborot tizimidagi xususiyatlarni ham yangilanishiga imkon berdi. Har bir ijtimoiy voqelik ma’lum bir fanning oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo‘yadi, bu uning xususiyatlarini kengayishiga, tamoyillarining o‘ziga xosligini ifodalashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008.
2. Ivanov P.I., Zufurova M.E. Umumiy psixologiya. Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2021. – B. 480.
3. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A‘zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. –Toshkent, Tafakkur nashriyoti, 2019. –B.684.
4. Nasirov A. 70-80-yillar romanchiligini o‘rgatishning ba’zi xususiyatlari haqida. Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2019. 165-169-betlar.
5. Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 428.
6. Qodirova F.R. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2011. – B. 164.